

**SUD EKSPERTIZALARNI O'TKAZISHDA YO'L QO'YILADIGAN ASOSIY  
XATOLAR, MUAMMOLAR, KAMCHILIKLAR VA ULARNING YECHIMLARI**

**Fayzullayev Hasan Yoqubjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

3-o'quv kursi 325-guruh kursanti safdar

**Zaynobiddinov Nizomiddin Isomiddin o`g`li**

325-guruh kursanti safdar

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.11158062>**

*Annotatsiya. Bugungi kunda Sud-ekspertizalarini o'tkazishda turli xil protsessual xatolar, kamchiliklarga yo'l qo'yilishi, ilmiy asoslantirmaslik, boshqacha qilib aytganda, yuridik va mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy salohiyatning yetishmasligi bois, jinoyat ishining dastlabki tergov va surishtiruv bosqichida Sud-ekspertizalarining qo'shimcha yohud qayta tayinlanishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni oldini olish bilan biz nafaqat ekspertlik faoliyatida, balki tergov jarayonida ham jinoyatlarni o'z vaqtida to'liq issiq izisa ochish, uni tergov qilish hamda oldini vaqtida olish, protsessual harakatlarni amalga oshirishda vaqtadan yutish kabi yutuqlarga erishilishi mumkinligi ta'kidlanadi.*

**Tayanch so'zlar:** Jinoyat-Protsessual Kodeksi bo'yicha ekspertizada keltirilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar; ekspertizani yozish qoidalari; protsessual xatolar; ilmiy bilim va salohiyatning yetishmasligi; keng tarqalgan xatolar.

**MAIN ERRORS, PROBLEMS, SHORTCOMINGS AND THEIR SOLUTIONS**

**WHEN CONDUCTING COURT EXAMINATIONS**

*Abstract. Due to various procedural errors, omissions, lack of scientific justification, in other words, lack of legal and scientific potential in the field of forensic examination, at the stage of preliminary investigation and investigation of a criminal case leads to additional or repeated appointments. It is emphasized that by preventing problems with data, we can achieve progress not only in expert activities, but also in technological processes, for example, with the correct discovery of voltage sources in all hot pursuit, their occurrence and prevention, as well as saving time when launching procedural actions.*

**Key words:** information to be provided during the examination in accordance with the Criminal Procedure Code; rules for writing an examination; procedural errors; lack of scientific knowledge and capacity; common mistakes.

**ОСНОВНЫЕ ОШИБКИ, ПРОБЛЕМЫ, НЕДОСТАТКИ И ИХ РЕШЕНИЯ  
ПРИ ПРОВЕДЕНИИ СУДЕБНЫХ РАССЛЕДОВАНИЙ**

**Аннотация.** Ввиду различных процессуальных ошибок, упущений, отсутствия научного обоснования, иными словами, отсутствия правового и научного потенциала в области судебной экспертизы, на стадии предварительного расследования и расследования уголовного дела приводит к дополнительным или повторным назначениям.

Подчеркивается, что предотвращая данные проблемы, мы можем добиться прогресса не только в экспертной деятельности, но и в процессе расследования, например, своевременного раскрытия преступлений по всем горячим следам, их расследования и предотвращения, а также экономии времени при осуществлении процессуальные действия.

**Ключевые слова:** сведения, подлежащие предоставлению при экспертизе в соответствии с Уголовно-процессуальным кодексом; правила написания экспертизы; процедурные ошибки; недостаток научных знаний и потенциала; распространенные ошибки.

---

**Kirish.** Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi soni ko'payishi bilan qatorda turli xil murakkab vaziyatlar vujudga kelmoqda. Ushbu murakkab vaziyatlarni qonuniy hal qilish paytida, maxsus bilim talab etiladigan holatlar mavjud. Masalan, fuqarolik huquqiy masalalar bo'yicha ishonchnoma, tilxatlar yohud vasiyatnomalar qo'ldirishda turli muammolar yozuv masalasida, hujjat masalasida yuzaga kelishi tabiiydir.

Buni qonuniy hamda ilmiy asoslangan holatda hal etish uchun bizga maxsus bilimga ega bo'lган ekspertlarga murojaat qilamiz. Ular bizga hujjatlardagi va xat-yozuvlardagi muammolarni yechimini hujjatlarni texnik kriminalistik ekspertizasi va xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish bilan topib beradilar.

Ammo bugungi kunda shunday muammolarni yechimini topish kerak bo'lган bir paytda, ekspertlar tomonidan xatolar, kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mutlaqo maqsadga muvofiq emas.

Bugungi kunda Sud organlari tomonidan oqlov hukmlarining yillar sayin ko'payishi, davlatimizning shaffof va pragmatik siyosat olib borayotganidan dalolat hisoblanadi. Lekin oqlovlar orasida dalillarning yetarli bo'limganligi yoki ta'minlanmaganligi, tergov jarayoniga yuzaki yondashganligi, ekspert xulosalarining noto'gri yohud aniq berilmasligi natijasida aybi bo'la turib, shunday shaxslarning tinch aholining orasida yurganligi afsuski hammaga ma'lum.

Ular o'z qilmishlariga yarasha javob berishlari hamda o'z qilmishlarini noto'g'ri ekanligini tushunib yetib tarbiyalanishlari lozim degan fikrdaman. Buning uchun hamma protsess ishtirokchilari o'z vazifalariga sitqidildan yondashib xizmat olib borishlari darkor.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasining JPK 184-moddasi “Ekspertning yoki ekspertlar komissiyasining xulosasi”da quyidalar keltirilgan:

“Ekspert yoki ekspertlar komissiyasi ekspert tekshiruvlarini o'tkazib bo'lganidan keyin tegishinchalik ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir ekspert imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi.

Xulosada: ekspertiza o'tkazilgan sana va joy; ekspertizani o'tkazish asosi; ekspertizani tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar; ekspert (familiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va ekspertizani o'tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma'lumotlar; ekspertning bila turib noto'g'ri xulosa bergenligi, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoxud prokurorning ruxsatsiz oshkor qilganligi, shuningdek xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi; ekspertning oldiga qo'yilgan savollar; ekspertga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari; ekspertiza o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqida ma'lumotlar; qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda ekspert tekshiruvlarining mazmuni va natijalari, shuningdek bu ekspert tekshiruvlari, agar ekspertlar komissiyasi ishlagan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi; ekspert tekshiruvi natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar; ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan va ekspertning tashabbusiga ko'ra aniqlangan holatlar ko'rsatilishi lozim.

Xulosada huquqbazarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergen shart-sharoitlar, shuningdek ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin”

Qonunda belgilanganidek, ekspertiza normativ huquqiy hujjatga asoslangan bo'lishi, uni faqat maxsus bilimga ega bo'lgan va ruxsatnomaga berilgan shaxs ekspert(muayyan yo'nalishda xulosa berish vakolatiga ega bo'lgan shaxs. Masalan: Xatshunoslik ekspertizasi bo'yicha) tomonidan o'tkazilishi, qonunda belgilangan vaqt mobaynida bajarib bo'lishi lozim, o'z bilimidan kelib chiqqan holda to'g'ri xulosa berishi va boshqa talablar mavjud hisoblanadi.

Ekspertiza tayinlangan ekspert, har doim ushbu ishni amalga oshirishda ekspertiza yozish metodikasini yodga olishi lozim:

- Kirish.
- Yozma majburiyat;
- Ekspert xulosasi;
- Ishning mazmuni;
- Tadqiqotga taqdim etilgan obyektlar;

- Ekpert oldiga qo'yilgan savol va topshiriqlar;
- Tadqiqot.
- Dastlabki tadqiqot;
- Analiz;
- Sintez;
- Xulosa.

Yuqorida qayd etilgan metodikaga amal qilish bilan biz bugungi mavzuyimiz muammosining katta qismiga yechim topgan bo'lamiz. Agarda yuqorida qayd etilgan metodikaga amal qilinmagan holatda ekspertiza yozadigan bo'lsak, biz ekspertizaning protsessual tartibi hamda ilmiy-metodik ketma-ketligini buzgan hisoblanamiz. Bu esa tergov jarayonida ekspertizaning maqbulligiga shubha uyg'otadi hamda dalil sifatida qayd etilmasdan, boshqa organga qayta ekspertiza tayinlashiga, bu esa tergov jarayonini yana kamida 15 kunga cho'zilishiga olib kelishi mumkin.

Ekspertiza xulosasining tadqiqot qismida asosan analiz va sintez qismiga e'tiborni ko'proq qaratish lozim. Chunki bu qismlarda ilmiy asoslantirish, tavsif berish qismi hisoblanib, ekspertizaning asosiy ilmiy qismi mana shu bosqichda hal etiladi. Analiz bosqichi barcha tadqiqotlar va eksperimentlarni o'z ichiga qamrab olishi, sintez qismida esa analiz qismida o'tkazilgan tadqiqot va eksperimentlardan kelib chiqqan natijalar umumlashtirilishi, bir to'xtamga kelinishi lozim.

Ekspertizaning xulosa qismida esa tadqiqotdan olingen natijaga asoslangan holda, ekspert oldiga qo'yilgan savollarga qisqa va aniq javob berish lozim hisoblanadi. Ko'p hollarda ekspertizaning xulosa qismidagi savollarga berilgan javoblar noaniq yoki juda tushunarsiz, hajman uzun bo'lib qolishi natijasida ekspertiza tayinlagan organ ushbu ekspertizadan o'ziga kerakli ma'lumotni ololmayapti. Bu ham qo'shimcha yohud qayta ekspertiza tayinlanishiga olib kelyapti desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kunda aynan xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishda ko'plab xatolar va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Buning asosiy sabablari bo'lib quyidagilarni olamiz:

- ❖ Xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishda faqat inson omili ishtirok etishi, bu esa ko'plab shubha va e'tirozlarga sabab bo'lishi;
- ❖ Xatshunoslik ekspertizasi qolgan an'anaviy turdag'i ekspertizalarga qaraganda murakkabligi;
- ❖ Xatshunoslik ekspertizasini o'tkazayotgan ekspertlarda muayyan turdag'i ekspertizani o'tkazish uchun bilim darjasini va malakasi yetarli emasligi.

O'zi aslida jamiyatning va davalatning zavolga yuz tutishi ham, bilimsizlikdan kelib chiqadi desak ayni haqiqat. Bu o'rinda ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish ham bundan mustasno emas. Xatshunoslik ekspertizasini tadqiq etgan rus hamda yevropa olimlarining o'quv qo'llanmalari va metodikalari asosida o'tkazish natijasida, biz tadqiqotdagi xatolar va kamchiliklarga to'liq barham bera olamiz deb o'ylayman.

Ekspertiza o'tkazish jarayonida keng tarqalgan xatolar haqida so'z borganda men, quyidagi masalalarni tilga olgan bo'lardim:

- ✓ Qariyb 70-80% ekspertlar, qaysi sana nimaga xizmat qilishi to'liq anglamaydi;
- ✓ Kirish qismidagi majburiyatlarini to'liq bayon etmaslik;
- ✓ Ekspertiza uchun taqdim etilgan ashyolarni to'liq ko'zdan kechirib, qayd etmaslik;
- ✓ Mayda obyektlarga katta ahamiyat bermaslik;
- ✓ Tadqiqot qismida ilmiy isbotlamaslik va sintez qismini qoldirib ketish;
- ✓ Xulosa qismida sabab keltirish va boshqa aktual muammolar mavjud.

**Xulosa:** Men, tomonimdan olib borilgan o'rganishlar natijasida shuni ma'lum qilamanki, yuqorida qayd etilgan normativ huquqiy hujjatlarga muvofiq ishni tashkillashtirish bilan bog'liq muammolarni, metodikani to'g'ri qo'llash bilan bog'liq muammolarni hamda ilmiy salohiyat bilan bog'liq kamchiliklar bartaraf etilgan holda biz ekspertizalar bilan bog'liq muammolarni katta qismini bartaraf etgan bo'lamic desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu bilan bir o'rinda ekspert kriminalistika sohasida oxirgi yillarda bo'layotgan islohotlar, yangiliklar, ekspert kriminalistikaning zamонави keng imkoniyatlaridan foydalanish va yangi texnologiyalardan foydalanishni o'rganish zarur hisoblanadi.

## REFERENCES

1. <https://lex.uz/O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-Protsessual Kodeksi 173-187-moddalari>;
2. Kriminalistik-Ekspertizalar darslik/ Toshkent 2020/ 22-78 betlar;
3. Криминалистика(учебник) \ Москва 1999 г\ ст. 156-158;
4. <https://library-tsul.uz/ru/kriminalistika-darslik-2018>;
5. КРИМИНАЛИСТИКА ВА ЭКСПЕРТИЗА ДАРСЛИК/Toshkent 2019/ Д.Б.Базарова, И.Р.Астанов
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kriminalistika/>